



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



**2025-YIL APREL.
NAVBATDAN TASHQARI SON**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 625 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ПРИНЦИПЫ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	12
Набиев Дилмурод Хамидуллаевич	
YaSHIL TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLASH TIRISH TA'SIRIDA MEHNAT BOZORINING TRANSFORMASIYASI	19
Abduraxmanov Kalandar Xo'jaevich	
РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО ТРУДА В ПОВЫШЕНИИ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ	26
Гулямов Саидахор Саидахмедович, Икрамов Мурат Акромович, Очилов Акрам Одilovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MAQSADIDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ZARURATI	33
O.X. Hamidov, D.Sh. Yavmutov	
ESG-ИНСТРУМЕНТАРИЙ КАК ФАКТОР УСИЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	38
Татьяна Юрьевна Анопоченко, Сергей Вадимович Ревунов, Роман Вадимович Ревунов	
TRANSITION OF RUSSIAN REGIONS TO A CLOSED-LOOP ECONOMY	49
Nikonov Sergey Mikhailovich, Ochilov Akram Odilovich, Filipenko Alexander Alexandrovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TUZILISHI	53
Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЫНКА ТРУДА И МОДЕРНИЗАЦИИ РАБОЧИХ МЕСТ В УЗБЕКИСТАНЕ	59
Зокирова Нодира Каландаровна	
KREATIV IQTISODIYOT VA UNING INDUSTRIYA TURLARINING NAZARIY MASALALARI	64
Mamayunus Pardaev, Obid Pardaev, Akram Ochilov	
EKOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA ERISHISH	73
Saidov Muhammadali Hakimovich, Ochilov Akram Odilovich, Esanbekov Diyorbek Mirzabek o'g'li	
INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI KOOPERASIYASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	81
Raxmatulla Ergashev	
KARTOSHA MOSLANUVCHAN NAVLARI TURLI EKISH MUDDATLARI VA MULCHALASHLARDA HOSILDORLIGI HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	86
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Toshpulatova Surayo Tulqin qizi, Ismayilov Alisher Isroilovich	
YASHIL IQTISODIYOT – INNOVATSION RIVOJLANISHNING KALITI	90
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ» В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93
Сайёра Насимовна Хамраева	
SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO'XORI AJRATILGAN MOSLANUVCHAN NAV-DURAGAYLARINI ASOSIY VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI MUDDATLARDA YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	97
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Nurillaev Ilhom Xolbek o'g'li, Jabborov Botir Shukurovich	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARIDA SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	101
Ivatov Irisbek	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	105
Yadgarov Akram Akbarovich, Abdiyeva Flora Botir qizi	
GREEN ECONOMY: GLOBAL PERSPECTIVE AND UZBEKISTAN'S PATH	110
Dilmurod Mirza-Akhmedovich Rasulev, Dildorakhon Ulugbek kizi Shomuradova	



OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARG'IB QILISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	113
Musayev Bekjon Shukurillayevich	
TURIZM INDUSTRIYASINI BARQAROR STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR TAHLILI	116
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
ЗЕЛЁНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	120
Орипов Ильхом Абдуллаевич	
Перспективы развития цифровой трансформации в Республике Узбекистан	128
Мусабеков Джорабек Хакимджанович, Воронин Сергей Александрович	
YASHIL IQTISODIYOT – BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	133
G.Erkayeva	
Barqaror ish o'rinlarini yaratishda yashil iqtisodiyotning o'rni	138
Qo'chqorov G'aybulla Fayzullayevich, Qo'ziyeva Shaxnoza Bozor qizi	
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	141
Фазлитдин Бахадиорович Аминов	
RESPUBLIKADA EKOLOGIK TOZA MAHSULOT YETISHTIRISH ASOSIDA ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH	145
Q. J. Mirzayev, F. F. Ulug'murodov	
Qoraqalpog'istonda sanoatni restruktizatsiyalash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar, istiqbollar va statistik tahlillar	150
Abipova Gulmira Salavatdinovna	
CHORVACHILIK XO'JALIKLARINI RIVOJLANTIRISHDA AGLOMERATSIYANING AHAMIYATI	153
Xusainov Oybek Jabborovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINING KOMPANIYA UCHUN AHAMIYATI	156
Ergashev Toxir Kurbanovich, Toxirova Nigora Zokirjon qizi	
CHORVACHILIK KLASSTERLARI VA AGLOMERATSION RIVOJLANISH: O'ZARO TA'SIR VA SYNERGIYALAR	161
Xusainov Oybek Jabborovich	
HUDUDLARNING INNOVATSIYON SALOHİYATINI BAHOLASH	165
J.A. Ismatullayev, A. Do'lanov	
СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	171
Нафасов Тохиржон, Г. П. Эркаева	
Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan islohotlar	174
Djurayev Olimjon Narkulovich	
USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES OF FARMING AND HOUSEHOLDS	178
Ochilova Nargiza Akramovna	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI	181
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
IQTISODIY O'SISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING AHAMIYATI	184
Djurayev Olimjon Narkulovich, Saidakbarov Jamshid Ne'matullo o'g'li	
TURIZMNIDA RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	189
Qosimov Jahongir	
РЫНОК ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В ТУРИЗМЕ В УСЛОВИЯХ ДИВЕРСИФИКАЦИИ И ДЕМОКРАТИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОЙ ИНДУСТРИИ	192
Ташмаматов Садирдин Нажмиддинович	



O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA DUAL TA'LIMDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH	196
Ochilov Akram Odilovich, Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	201
Nasiba Ergasheva	
KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI	207
Djurayev Olimjon Narkulovich, Nurullayeva Vazira O'ktamovna	
ЗЕЛЁНЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ПЕРСПЕКТИВЫ И РИСКИ	211
Номазов Бахром Бобомуродович	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ESG В ФИНАНСОВУЮ СФЕРУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	215
Алимова Азиза Шерзатовна	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON MANAGEMENT	219
Ergashev Tokhir Kurbanovich, Tohirova Nigora Zokirjon kizi	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT STRATEGIYASI" NI AMALGA OSHIRISHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI	224
Ergasheva Nazira Muratovna, Soyibov Mirjon Bekjonovich	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСЛУГ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	227
Алимова Муниса Юлчиевна	
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗНАЧИМОСТИ.....	232
Расулов Нозимжон Набиджонович	
AGLOMERATSIYA VA IQTISODIY O'SISH: SABAB-OQIBAT ALOQASI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	236
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
KORXONALARNING SOLIQ IDORALARIDA HISOBGA OLINISHIDAN HOSIL BO'LGAN ORTIQCHA TO'LOVLARINI BOJXONA TO'LOVLARIDA HISOBGA OLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	239
Boykabilov Bahodir Mustafaevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARGA INVESTITSİYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	242
Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Bozorov Yashnarbek Xayrulla o'g'li	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGIDA "IXTISOSLASHTIRILGAN AGROKOOPERATIV" TASHKIL ETISH ORQALI TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	248
Amirqulov Shuxrat Olimovich	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHI UCHUN ZAMONAVIY HUQUQIY ASOSLARI.....	254
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
TURIZMNING MADANIY-TARIXIY RESURLARI: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TAMOYILLAR	258
Ruzmanov Dilshod Usmanovich	
BARQAROR TURIZM DESTINATSIYALARINING SIG'IMINI BAHOLASH METODIKASI.....	262
Ibroximov Nodirbek Xasanovich	
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ КАК ОСНОВА ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	266
Хусаинов Равшан Рахимович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	272
Раимова Муборак Джурраевна	
"YASHIL IQTISODIYOT" NING ASOSIY XUSUSIYATLARI	276
Djumayev Asqar Xaydarovich	



RAQAMLI MARKETINGNING ISTE'MOLCHI XULQ-ATVORIGA TA'SIRI.....	281
Raimova Muborak Jurayevna, Dilmurodov O'tkir	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	287
SH.A. Buriyev	
SAVDO XIZMATLARINING ASOSIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARI TIZIMINI BAHOLASH.....	291
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI: YASHIL IQTISODIYOTNING IQLIM O'ZGARISHINI YENGISHDAGI O'RNI VA GLOBAL HAMKORLIK.....	295
Usmonov Murodjon Xolmurod o'g'li, Ulug'bek Eshmaxmatov	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕХАНИЗМА НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	299
Абдулов Дамир Рустамович	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	305
Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich, Boliyeva Baxora Farxodovna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА: КОНЦЕПЦИИ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	308
Туляганова Шахноза Самукджановна	
O'TA ERTAGI TARVUZNING HIMOYALANGAN JOYLAR UCHUN MOSLANUVCHAN NAV VA DURAGAYLARINI AJRATISH, ULARNI TURLI O'G'IT ME'YORLARIDA HOSILDORLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	311
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Amirov Xamidulla Suyunovich, Umirova Durdona Muqum qizi	
ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩНОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ	315
Уралов Элшод, Вельм М.В.	
DEVELOPMENT STRATEGY AS A MODEL OF PROGRESS IN HUMAN RESOURCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	320
Abdiev Alimardon	
ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕКТОРА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ И РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА.....	322
Мухаммадбобур Салимов	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	326
Suyunov Jabbor Mahmudovich	
"SALOHİYAT" TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA IQTISODIY-IJTIMOIIY MOHIYATI.....	331
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	334
Salimov Muhammadbobur Qodir o'g'li	
O'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	337
Tilakov Sherzod	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAMOYILLARI ASOSIDA BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI.....	340
Sattarov Umirzoq, Ro'ziev Zafar Ikromovich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT XOM ASHYOLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TENDENSIYALARI.....	343
Xazratov Sarvar Ibragimovich	
YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIIY TENDENSIYALARI	348
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, O'rinov Diyorbek Xolmo'min o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATI O'QUV MARKAZLARI VA KURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	353
Tilakov Sherzod Akbarovich	



SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH SIFATI HAMDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNI BOSHQARISH YO'NALISHLARI.....	357
Ochilov Akram Odilovich, Ziyodullayeva Marjona Alisher qizi	
OMMAVIY TADBIRLAR YORDAMIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA.....	360
Ibragimov Sardorbek Xusanovich	
Анализ цифровой трансформации и её влияния на привлечение инвестиций в регионы Узбекистана.....	365
Рахмонова Дурдона Хасан кизи	
Korxona moliyaviy salohiyatini baholashning statistik tahlili.....	370
M.O. Musurmonova	
DIRECTIONS FOR IMPROVING THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM OF THE BANKING SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	377
Kadirov Lutfulla Khalimovich	
PROBLEMS OF EMPLOYMENT IN THE LABOR MARKET OF UZBEKISTAN AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION.....	381
Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ORQALI QASHQADARYO VILOYATI SANOAT KOMPLEKSINI TAKOMILLASHTIRISH	385
U.Shukurov	
FOREIGN EXPERIENCES IN ATTRACTING INVESTMENTS IN SERVICE INDUSTRIES	390
Hazratkulov Shahboz Boboqul ogli	
YASHIL IQTISODIYOTDA TA'LIMNING ROLI.....	394
Babayeva Lola Ibragimovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI UCHUN DAVLAT TOMONIDAN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR.....	398
Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHNING XORIY TAJRIBASI.....	404
Safarov Sh. S.	
IJTIMOIIY MENEJMENTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	408
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Davronova Farangiz	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ: КАЗНАЧЕЙСКИЙ КОНТРОЛЬ В БЮДЖЕТНОМ ПРОЦЕССЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ»	415
Файзуллаева Зилола Равшановна, Д.Х. Пулатов	
YANGI O'ZBEKISTONDA YASHIL RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING ASOSIY JIHATLARI.....	421
Urozoza Shaxlo Hasan qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	427
Safarov Shoxrux Sattor o'g'li	
PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF HUMAN RESOURCES IN UZBEKISTAN.....	431
Alimardonova Gulfizoda Alimardon kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	434
Egamberdiyeva Salima Rayimovna	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI	441
Berdimurodova Farzona Bahodir qizi, Sh. Xolliyev	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES VA IQTISODIYOTDAGI ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	446
Davronova Farangiz Ilhom qizi	



ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA PUL VA BANK TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI HAMDA AHAMIYATI	452
Axtamova Ozoda Ulug'bek qizi, Cho'liyeva Gulsanam Yulchi qizi, G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: TARKIBIY O'ZGARISHLARNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	460
N. Qo'ziboyeva	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TARKIBIY O'ZGARISHLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI.....	466
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY INTEGRATSIYA.....	470
Xushvaqtov Ramziddin	
ILMIY SALOHİYAT VA OLIY TA'LIM SIFATINING UZVIY BOG'LIQLIGI: TAHLIL VA TAVSIYALAR	476
Muratov A'zam Alisher o'g'li, Ochilov Akram Odilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: GREEN CREDIT	480
Eshtemirova Ma'rifat Akram qizi, Kabilova Shaxnoza Jurayevna	
DEHQON XO'JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARINING DINAMIKASI VA BOZOR MUVOZANATI MODELLARINI QO'RISH.	483
Ergashov Yashnarbek Istamovich	
The Role of Renewable Energy in the Green Economy.....	488
Khudoyberdiyeva Olima, Yakhshikulova Mokhinur	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: asosiy muammolar va imkoniyatlar	494
Jumanazarov Asilbek Utkirbek o'g'li, Ulug'bek Eshmaxmatov	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBAT USTUNLIGI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH OMILLARI	498
Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH SIYOSATINING ZAMONAVIY TRENDLARI HAMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	504
Shodiyev Jahongir	
YASHIL IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	509
Babayeva Lola Ibragimovna, Sh. S. Sa'dullayev	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA MAHSULOTLAR INTENSIV RIVOJLANISHINI TA'MINLASH JARAYONLARI	512
Saburov Jumanazar Salievich	
SUG'URTA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA MEXANIZMLARI.....	516
E.Sobirov	
"YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH	520
Xo'janova Gulshoda Otamurodovna	
QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	526
Dilafuz Taylakova	
KORXONALARDA EKOLOGIK INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI TAHLILI.....	532
Ulashov Aliboy Rashid o'g'li	
YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK VA MOLIYAVIY TIZIMLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR TAHLILI HAMDA KELGUSIDAGI ISTIQBOLLARI	538
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Alarov Asilbek Oybek o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK BARQARORLIGI VA EKOLOGIK IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH MASALALARI.....	545
O'rinov Diyor, Xolliyev Sh.B.	



YASHIL IQTISODOYOT VA UNDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....	549
Ermuminov Elbek Erkin o'gli, Yaxshiqulova Moxinur Toxir qizi	
XIZMATLAR SOHASIDA KADRLARNING TUTGAN O'RNI	553
Turayeva Nargiza Rustamovna	
IQTISODIYOTDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	557
G.P.Erkayeva, N.H.Qo'ziyoyeva	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI	560
Samadova Jasmina Sherali qizi, Sh. Xolliyev	
"YASHIL" ENERGETIKA VA "YASHIL" IQTISODIYOT.....	564
Qarshiyeva Dilsora Ismoil qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
MAMLAKAT BUDJETINING SHAKLLANISHI VA DAROMADLAR TAQSIMOTINING IQTISODIYOTDAGI ROLI	569
Ashirqulova Sevinch Sarvar qizi, Sh. Xolliyev	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	574
Urozova Shahlo Hasan qizi, Rahmonova Tillaoy Malik qizi	
"YASHIL" IQTISODIYOT INNOVATSION RIVOJLANISHINING KO'RSATGICHLARI.....	579
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Usmonov Murodjon Dushmanov o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	583
Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	588
Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna	
СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ.....	593
Чекулаева Кристина	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	599
Чекулаева Кристина	
YASHIL IQTISODIYOT - MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI.....	605
Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI	608
M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid	
MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY	613
Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI	617
Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi	
YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI	621
Gulrux Arslon qizi Ismoilova	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Raqamli iqtisodiyot kafedrası mudiri, professor.
mirzayevpro@umail.uz

Eshquvvatova Nodira Abdullayevna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
I bosqich tayanch doktoranti
eshquvvatovanodira1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida iqtisodiy resurslardan foydalanishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi masalalari tahlil qilingan va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar asoslangan.

Kalit so'zlar: Innovatsion iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat subsidiyalari, iqtisodiy taraqqiyot, kreditlash, strategik qarorlar.

Abstract: This article analyzes the issues of the state support system for the use of economic resources in agriculture in the context of an innovative economy and provides scientific recommendations for increasing their efficiency.

Key words: Innovative economy, agriculture, financial support, government subsidies, economic development, lending, strategic decisions.

Аннотация: В статье анализируются вопросы системы государственной поддержки использования экономических ресурсов в сельском хозяйстве в условиях инновационной экономики и даются научные рекомендации по повышению их эффективности.

Ключевые слова: Инновационная экономика, сельское хозяйство, финансовая поддержка, государственные субсидии, экономическое развитие, кредитование, стратегические решения.

KIRISH

Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik sektor bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni¹ bilan tasdiqlangan "Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish" belgilab berilgan. Yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqib quyidagi vazifalarni tizimli amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi:

Meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini kamida 2,5 mlrd dollarga yetkazish.

Shu bilan birga "in-vitro" usulida 12 mln dona sertifikatlangan ko'chatlarni ko'paytirish va meva-uzum yetishtiruvchilarga yetkazib berish.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish va uni jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida [PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentyabr]. – <https://lex.uz>



Sabzavot mahsulotlarini intensiv usulda yetishtirish ko'lamini 31 ming gektarga yetkazish.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda sabzavotdan gektariga o'rtacha 350–450 sentner hosil olishni ta'minlash kabilar ko'zda tutilgan.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligiga moliyaviy yordam ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mablag'lardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu jarayon qishloq hududlarining uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik esa davlat tomonidan ajratiladigan mablag'larning oqilona ishlatilishini ta'minlash orqali qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar orqali subsidiyalarni boshqarish, moliyaviy monitoringni kuchaytirish va fermer xo'jaliklari uchun qulay shart-sharoit yaratish mumkin. Shuningdek, raqamli platformalar yordamida moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish, kredit olish jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmat ko'rsatishni yanada qulay qilish mumkin. Bu jarayonlar nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtiradi, balki qishloq xo'jaligi subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun davlat mablag'larini boshqarish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va agrar sektor uchun moliyaviy dasturlarni yanada diversifikatsiya qilish zarur. Moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish orqali davlat qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirishda mablag'lardan oqilona foydalanadi va iqtisodiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishadi. Innovatsion texnologiyalarni rag'batlantirish esa fermerlar va agrar korxonalar uchun moliyaviy xizmatlarning tezkor va sifatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladigan usullar turli xil bo'lib, ular iqtisodiy tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash va fermer xo'jaliklari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturlar va moliyaviy mexanizmlar qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullar davlat va qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlar orqali ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlariga asos bo'lgan.

Xolmurodov O.² – O'zbekiston qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. U innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish va resurslar tejamkorligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

To'xtayev B.³ – Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganib, bunda investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilishi va resurslar bilan samarali ta'minlash muhimligini ko'rsatib bergan.

Karimov A.A.⁴ – U o'zining tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga joriy etish orqali mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlik ortishini asoslagan.

Jahon banki va FAO⁵ (BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) – O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari va fermer xo'jaliklarining innovatsion yondashuvlarga o'tishini tavsiya etgan.

Yusupov B.⁶ va boshqalar – Ular yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi, ularni qayta taqsimlash va ijaraga berish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini yoritganlar.

Tadqiqotning usullari: Ushbu maqolada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda davlat tomonidan mablag'larni samarali taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, subsidiyalarni oqilona taqsimlash va fermer xo'jaliklarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish orqali davlat qishloq xo'jaligi sektorining samaradorligini

2 Xolmurodov O. O'zbekiston qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 45–49.

3 To'xtayev B. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda investitsiyalarning roli // Agrar iqtisodiyot jurnali. – 2021. – №2. – B. 23–28

4 Karimov A.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi // Innovatsiyalar va iqtisodiyot. – 2022. – №4. – B. 36–40.

5 Jahon banki va FAO. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar. – BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti nashri. – Rim, 2021. – 78 b.

6 Yusupov B. va boshqalar. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni ijaraga berish mexanizmlarini takomillashtirish // Yer va suv resurslari iqtisodiyoti. – 2020. – №3. – B. 12–18.



oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy ma'lumotlar va monitoring tizimlari agrar sohaning hozirgi holatini tahlil qilish va strategik yondashuvlar hamda tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar qishloq xo'jaligi sektorining samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari orqali qishloq xo'jaligining iqtisodiy salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo'nalishlar belgilab beriladi.

Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda innovatsion yondashuvlar

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvlar agrar sektorda samaradorlikni oshirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Misol uchun:

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish: subsidiyalarni boshqarish va monitoring qilish uchun raqamli platformalar yaratish qishloq xo'jaligi subyektlari uchun shaffof va tezkor xizmatlarni ta'minlaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali fermer xo'jaliklarining moliyaviy faoliyati haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish mumkin.

- Sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanish: agrar sektorda ekinlarning rentabelligini prognoz qilish va resurslarni samarali taqsimlashda sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshiradi.

Qishloq xo'jaligida moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada samarali tashkil qilish uchun moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish zarur. Buning uchun:

- Kreditlash mexanizmlarini kengaytirish: fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalari uchun imtiyozli kreditlar ajratish moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali shakli hisoblanadi. Bunda mikromoliya va kichik kredit dasturlarining roli alohida ahamiyatga ega.

- Davlat-xususiy sheriklik loyihalari: yirik agrar loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor bilan hamkorlik qishloq xo'jaligini moliyalashtirish manbalarini kengaytiradi.


Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat tomonidan uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun quyidagi choralar ko'rilishi lozim:

- Huquqiy kafolatlarni mustahkamlash: davlat tomonidan subsidiyalar va kreditlash jarayonlariga doir qonunchilikni takomillashtirish moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

- Statistik monitoringni kuchaytirish: qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan moliyaviy dasturlarni real vaqt rejimida kuzatish tizimini joriy etish orqali mablag'larning to'g'ri sarflanishi nazorat qilinadi.

Mazkur yondashuvlar qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshiradi va agrar sektorning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy rag'batlantirish choralari nafaqat qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki aholi farovonligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



1-rasm. Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



Diagramma qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni foiz ko'rinishida aks ettiradi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: qishloq xo'jaligida kreditlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, sun'iy intellekt va big data, davlat-xususiy sheriklik, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va statistik monitoring. Har bir yo'nalishning iqtisodiy rivojlanishdagi ulushi ko'rsatilgan.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Bunda quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega:

Moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish. Davlat qishloq xo'jaligiga ajratiladigan mablag'larning hajmini oshirish bilan bir qatorda, xalqaro moliya institutlarining grantlari va kreditlarini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishi lozim. Shuningdek, xususiy sektorni investitsiyalarga jalb qilish orqali qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmini kuchaytirish mumkin. Maxsus fondlar va davlat-xususiy sheriklik dasturlari bu borada muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Masalan, dronlar yordamida hosildorlikni monitoring qilish, "aqlli sug'orish tizimlari" va sun'iy intellekt asosida ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy xususiyatlarni hisobga olish. Qishloq xo'jaligi hududlarning tabiiy resurslari, iqlimi va iqtisodiy salohiyati bo'yicha farqlanadi. Shuning uchun har bir hudud uchun moslashtirilgan moliyaviy dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, suv resurslari kam hududlar uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan subsidiyalar ajratilishi mumkin.

Kreditlash tizimini soddalashtirish va qo'llab-quvvatlash. Kichik va o'rta fermerlar uchun kredit olish jarayonlarini soddalashtirish va foiz stavkalarini subsidiyalash orqali ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur. Bu qishloq xo'jaligida ishlayotgan tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Ta'lim va malaka oshirish. Fermerlar va agrar sektordagi boshqa ishtirokchilarning malakasini oshirish qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu uchun maxsus treninglar, xalqaro tajriba almashish dasturlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish talab etiladi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash. Qishloq xo'jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik me'yorlarga muvofiq infratuzilmani rivojlantirish muhimdir. Bu, bir tomondan, atrof-muhitni muhofaza qilishga, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu chora-tadbirlar kompleks yondashuvni amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligining iqtisodiy samarasini oshiradi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun bir qator yo'nalishlarni amalga oshirish zarur. Davlat tomonidan subsidiya va grantlar ajratishni kengaytirish, ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlash uchun raqamli monitoring tizimlarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu mablag'larni innovatsion texnologiyalar xaridiga yo'naltirish fermer xo'jaliklari uchun ijobiy natijalar beradi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali uzoq muddatli va imtiyozli kreditlarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish lozim. Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi kabi tashkilotlar bilan ishlash, xalqaro tajribani o'rganish va joriy qilish qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi sohasida tabiiy ofatlar va boshqa xavflarga qarshi sug'urta tizimini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Fermerlar uchun davlat tomonidan subsidiyalanadigan sug'urta mexanizmlari joriy etilishi tavsiya etiladi.

Eksport salohiyatini rivojlantirish ham qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlaridan biridir. Mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish uchun ularni sertifikatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, eksportga yo'naltirilgan fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish zarur. Shuningdek, qishloq xo'jaligi kooperativlarini rivojlantirish resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni kamaytirishda muhim omil bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot va ekologik qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, yashil texnologiyalarni joriy qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish rag'batlantirilishi kerak. Bundan tashqari, qishloq joylarda transport, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahsulot yetkazib berish tizimini yaxshilash va fermerlarning xarajatlarini kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish orqali fermerlar uchun moliyaviy xizmatlarni qulay va arzon qilish, tijorat banklari va davlat moliya tashkilotlari orqali qishloq xo'jaligiga imtiyozli kreditlarni taqdim etish zarur. Ushbu yo'nalishlar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga va iqtisodiyotning umumiy barqarorligini mustahkamlashga hissa qo'shadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish qishloq hududlarining barqaror rivojlanishiga va milliy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Subsiya va grantlarning kengaytirilishi, sug'urta tizimining rivoji, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik, raqamli va yashil texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini rivojlantirish, kooperatsiyalarni tashkil etish, qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish va moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali qishloq xo'jaligi sektorining raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bular quyidagilardan iborat:

Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar va grantlar hajmini oshirish orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda uzoq muddatli va past foizli moliyaviy manbalarni jalb etish.

Qishloq xo'jaligida raqamli nazorat va monitoring tizimlarini joriy etish orqali mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash.

Sug'urta xizmatlarini kengaytirish va tabiiy ofatlarga qarshi barqaror moliyaviy himoya tizimini yaratish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish uchun logistika va eksport infratuzilmasini rivojlantirish.

Ushbu yondashuvlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish va uni jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida [PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentyabr]. – <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Qishloq xo'jaligidagi vazifalar muhokama qilindi [Prezident matbuot xizmati, 2023-yil 23-mart]. – <https://president.uz/oz/lists/view/6080>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab olindi [Prezident matbuot xizmati, 2023-yil 12-dekabr]. – <https://president.uz/oz/lists/view/6921>
4. Xolmurodov O. O'zbekiston qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 45–49.
5. To'xtayev B. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda investitsiyalarning roli // Agrar iqtisodiyot jurnali. – 2021. – №2. – B. 23–28.
6. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzakov B.K. "Innovatsion iqtisodiyot": O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti matbaa uyi", 2020. – 330 bet.
7. Karimov A.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi // Innovatsiyalar va iqtisodiyot. – 2022. – №4. – B. 36–40.
8. Ametov, M.K. (2023). Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishning yangicha usullarini tashkil qilishning dolzarb masalalari. [Internet manbasi: researchgate.net]
9. UNDP Uzbekistan. (2021). Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorining «yashil iqtisodiyot»ga o'tishi. [Internet manbasi: www.undp.org]
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Vazirlikning asosiy vazifa va funksiyalari. [Internet manbasi: imv.uz]
11. Staff. (2023). Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar. [Internet manbasi: tiame.uz]
12. Yuldashev, M. (2023). Yashil iqtisodiyot: O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirish. [Internet manbasi: www.researchgate.net]



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>